

TARBIYA METODLARI TASNIFI, TA'RIFI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Jumayeva Zohida

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedra o'qituvchisi

Sattorova Fazilat Xolmurod qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi III bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada tarbiya metodlari tasnifi, ta'rifi, vazifalari, maqsadlari yoritilgan.

Kirish so'z: Metod, terbiya, tarbiya metodi, usul, maqsad, vazifalari.

"Metod" so'zi yunonchadan olingan bo'lib, "yo'l, usul" degan ma'nolarni anglatadi. O'qituvchi kasbiy faoliyatida qo'llanadigan metodlarga quyidagilar kiradi:

1. Ilmiy-tadqiqot metodlari.
2. Ta'lim metodlari.
3. Tarbiya metodlari.
4. Interfaol metodlar.

Bu maqola yordamida tarbiya metodlari haqida ma'lumot bermoqchiman.

Tarbiya metodi – tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlashning bir nechta omillari mavjud. Ular quyidagilardir:

- ★ tarbiyaning maqsad va vazifalari
- ★ tarbiya mazmuni
- ★ tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish
- ★ jamoaning shakllanganlik darajasi
- ★ tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari
- ★ tarbiyaviy shart-sharoitlar
- ★ tarbiya vositalari
- ★ pedagogik malakani egallaganlik darajasi
- ★ tarbiya vaqti
- ★ kutiladigan natija

Tarbiya metodlari o'z navbatida 3 guruhga bo'linadi:

1. Ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar
2. Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari
3. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari

Ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlarning vazifasi o'quvchining ijtimoiy ongiga axloq, hayot, mehnat qilish munosabatlari qoida va me'yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishga qaratilgan.



Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari vazifasi o'quvchida ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qilishdan iborat.



Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari vazifasi tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishdan iboratdir.



Tarbiya metodlari darsning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishda kerakli bo'lgan metodlar hisoblanadi. Tarbiya metodlarini nafaqat boshlang'ich sinf o'qituvchilariga balki yuqori sinf o'quvchilarida ham qo'llasa bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarbiya metodi faqat tarbiya jarayonida emas balki ta'lim berishda ham juda samarali metod turi hisoblanadi. Faqat o'qituvchi har bir metoddan qachon, qanday vaziyatda foydalanishi kerakligini va har bir metodning maqsadi, vazifalarini anglagan holda ularni qo'llashi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M.Qurbonov.Ijtimoiy pedagogika.-Toshkent, 2003 yil
2. J.Hasanboyev.Pedagogika ,-"Noshir" Toshkent, 2011 yil
3. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazaryasi va amalyoti. Toshkent, 2017yil